



ISSUES OF ESTABLISHING CRIMINAL LIABILITY FOR ILLEGAL ENRICHMENT WITHIN THE FRAMEWORK OF THE UN CONVENTION AGAINST CORRUPTION

Ozodbek Tursunbayev

Master's student

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: tursunbayevozodbek0@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: corruption, UNO, convention, illicit enrichment, state, public official, crime, punishment, declaration, state bodies.

Received: 14.02.25

Accepted: 16.02.25

Published: 18.02.25

Abstract: This article analyzes the international legal framework for combating corruption, analyzes organizational and legal opinions on the implementation of criminal liability for illicit enrichment in national legislation based on the norms of the UN Convention, legal frameworks and mechanisms for declaring income of public officials to prevent corruption, analyzes the experience of foreign countries in combating corruption, and theoretically highlights the opinions of scientists and practicing lawyers.

BMTNING KORRUPSIYAGA QARSHI KONVENSIYASIGA ASOSAN NOQONUNIY BOYLIK ORTTIRISH UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BELGILASH MASALALARI

Ozodbek Tursunbayev

Magistratura talabasi

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: tursunbayevozodbek0@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: korrupsiya, BMT, konvensiya, noqonuniy boylik orttirish, davlat, mansabdor shaxs, jinoyat, jazo, deklaratsiya, davlat organlari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro huquqiy asoslari, BMT Konvensiyasi normalari asosida noqonuniy boylik orttirishga jinoiy javobgarlik belgilashda milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yuzasidan tashkiliy-huquqiy fikrlar tahlili, korrupsiyani oldini olishda mansabdor shaxslarning daromadlarini deklaratsiya qilishning huquqiy asoslari va mexanizmlari,

korruptsiyaga qarshi kurashishda xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, nazariy jihatdan olimlar, huquqshunos amaliyotchilar fikrlari yoritilgan.

ВОПРОСЫ УСТАНОВЛЕНИЯ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НЕЗАКОННОЕ ОБОГАЩЕНИЕ В РАМКАХ КОНВЕНЦИИ ООН ПРОТИВ КОРРУПЦИИ

Озодбек Турсунбаев

студент магистратуры

Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

E-mail: tursunbayevozodbek0@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: коррупция, ООН, конвенция, незаконное обогащение, государство, должностное лицо, преступление, наказания, декларация, государственные органы.

Аннотация: В данной статье анализируются международно-правовые основы борьбы с коррупцией, анализ организационно-правовых мнений по вопросам имплементации уголовной ответственности за незаконное обогащение в национальное законодательство на основе норм Конвенции ООН, правовые основы и механизмы декларирования доходов должностных лиц для предотвращения коррупции, анализируются опыт зарубежных стран в борьбе с коррупцией, теоретически освещаются мнения ученых и юристов-практиков.

Kirish. Bugungi kunda global dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda, shaxs, jamiyat va davlatning Konstitutsiya va qonunlar shuningdek, xalqaro shartnomalar bilan belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklarini huquqiy jihatdan himoya qilishda har bir davlat organining faoliyatida korruptsiyani oldini olish, manfaatlar to'qnashuvi xavfini keltirib chiqaruvchi har qanday ijtimoiy xavfli qilmishlarga barham berish va korruptsiyaga qarshi tizimli kurashishda mansabdor shaxslarning qonunga xilof tarzda boylik orttirishlarini aniqlash va ularni jinoiy javobgarlikka tortish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. BMT Bosh kotibi Antonio Gutterishning 2023-yil 11-15-dekabr kunlari AQSHning Atlanta shahrida o'tkazilgan BMT Korruptsiyaga qarshi konvensiyasining 20 yillik yubileyi yuzasidan xalqaro konferentsiyasidagi nutqida "Korruptsiya nafaqat resurslarni balki insonlarning adolatga bo'lgan umidini ham tortib olmoqda, barcha a'zo davlatlarni korruptsiyani aniqlash, tergov qilish va korruptsiyaga qarshi samarali kurashishda xalqaro hamkorlikka chaqiramiz" – deb ta'kidlagan edi [1]. Bu esa o'z navbatida, korruptsiyani oldini olish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korruptsion xavf-xatarlarni aniqlash va ularga barham berishning xalqaro hamjamiyat oldidagi dolzarb vazifa ekanligidan dalolat beradi.

Xususan, Respublikamizda korrupsiyani oldini olish va unga qarshi samarali kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tahlil qilib, davlat siyosati darajasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi belgilanganligiga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasidagi nutqlarida, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi" – deb ta'kidlagan edilar. Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlantirish maqsadlari qatorida (Sustainable Development Goals) 16-maqsadi dunyoda adolat, tinchlik o'rnatish doirasida har bir suveren davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vazifalari ham belgilangan. Xususan, SDG 16-maqsadiga muvofiq, davlatning vakolatli organlari tomonidan korrupsiyani oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlar joriy etilishi va korrupsiyaga qarshi kurashishning amaldagi huquqiy mexanizmlarini yanada kuchaytirish tartib-taomillari ham belgilangan.

Adabiyotlar tahlili. Keyingi navbatda, BMT Konvensiyasini huquqiy tahlil qilishdan oldin O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishdagi milliy qonunchilik hujjatlari asosida korrupsiya tushunchasini huquqiy ta'rifini ko'rib chiqamiz. Xususan, 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonunning 3-moddasiga muvofiq, **korrupsiya** – bu shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish hisoblanadi [2]. Bundan tashqari, Keyingi navbatda, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid xalqaro huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali noqonuniy boyish qilmishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, BMT Bosh Assemblyasi tomonidan 2003-yil 31-oktabrda №58/4 Rezolyutsiya bilan qabul qilingan "BMTning Korrupsiyaga qarshi" Konvensiyasi – tom ma'noda butun jahondagi korrupsiyaga qarshi kurashishdagi va uning oldini olishga qaratilgan preventiv chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan universal xalqaro huquqiy hujjat sifatida tan olinmoqda. Konvensiya – muqaddima, 8 ta bob va 71 ta moddadan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 2008-yil 7-iyul kuni qo'shildi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro majburiyatlarni qabul qildi [3]. Shuningdek, Konvensiyada korrupsiyaning rivojlanishi unga qarshi samarali mexanizmlarni ishlab chiqmaslik dunyoda uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va jamiyat uchun xavfli bo'lgan boshqa salbiy omillarga qarshi kurashga ulkan to'siq bo'lishi mumkinligiga alohida urg'u berilgan [4]. Shuningdek, noqonuniy boyish tushunchasiga huquqiy ta'rif beradigan bo'lsak, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 20-moddasiga ko'ra, **noqonuniy boylik orttirish** – bu mansabdor shaxsning qasddan sodir etiladigan va jinoiy

huquqbuzarlik deb topiladigan aktivlarining qonuniy daromadidan ortib ketishi va mansabdor shaxsning ortib ketgan aktivlarini daromad manbayini isbotlay olmasligida ifodalanadi [5]. Hozirgi kunda, davlatimiz ushbu Konvensiyaga qo'shilganligini inobatga olsak, Konvensiyaning 20-moddasida ko'rsatilgan xalqaro huquqiy norma hali ham O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida yangi jinoyat sifatida kiritilmagan.

Ta'kidlash joizki, 1969-yil 23-mayda qabul qilingan "Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena Konvensiyasining 2-moddasiga ko'ra, har bir davlat "qo'shilish", "ratifikatsiya qilish", "imzolash" va "qabul qilish" orqali xalqaro shartnomada belgilangan xalqaro majburiyatni bajarish uchun o'z roziligini ifoda etgan hamda xalqaro majburiyat olgan deb hisoblanishi belgilab qo'yilgan [6]. Shuningdek, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qo'shilishning huquqiy asosini tahlil qilsak, 2008-yil 07-iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York 2003-yil 31-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi O'RQ-158-son Qonuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga qo'shilgan bo'lib, Konvensiyasining 6-moddasi 3-bandiga izoh sifatida, davlatimizda korrupsiyani oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi maxsus vakolatli organlar sifatida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati belgilab qo'yilgan, ammo Konvensiyaning 20-moddasiga hech qanday izoh yoki ogovorka ko'rsatib o'tilmagan. Demak, davlat muayyan xalqaro shartnoma doirasidagi xalqaro majburiyatini bajarishi kerak deb hisoblanadi, bu esa o'z navbatida BMTning 1945-yil 26-iyunda qabul qilingan Ustavi 2-moddasi 2-bandidagi *pacta sunt servanda* prinsipiga amal qilinishini ham yaqqol namoyon qiladi [7]. Sababi, O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida, BMT doirasida qabul qilingan universal xalqaro shartnomalarga amal qilishi lozim bo'ladi. Shuningdek, noqonuniy boylik orttirish qilmishi yuzasidan huquqiy tadqiqot olib borgan yuridik fanlar doktori, professor N.V.Shedrinning fikriga ko'ra, "Noqonuniy boylik orttirish uchun jinoiy javobgarlik belgilash umumiy huquqiy prinsiplarga muvofiq ravishda, xalqaro huquqiy zarurat va maqbullik, konstitutsiyaga muvofiqlik hamda tizimli huquqiy izchillik va jinoiy javobgarlikka tortishni protsessual tartibini mavjudligi asosida amalga oshirilishi lozim" deb topilgan [8]. Bundan kelib chiqadiki, mansabdor shaxslarning noqonuniy boylik orttirishi qilmishini jinoiy javobgarlik sifatida qonunchilikda belgilash uchun eng avvalo unga asos bo'luvchi, davlat xizmatchilarining daromadlarini deklaratsiya qilishning huquqiy asosi mavjud bo'lishi kerak deb hisoblaymiz. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Tula universitetining bir qator huquqshunos professorlarining ilmiy-huquqiy maqolalari ko'rib chiqilganda, noqonuniy boyish qilmishini – alohida jinoyat sifatida Jinoyat qonunchiligiga kiritishda ikki xil nizolar mavjudligi ko'rsatilgan bo'lib, ularning birinchisi – qilmishni qasddan sodir etilishini isbotlashning jinoiy-huquqiy muammolari bo'lsa, ikkinchisi

shaxsning aybsizlik prezumpsiyasiga zid ekanligi deb ta'kidlangan [9]. Shuningdek, Tula davlat universiteti professori, yuridik fanlar doktori A.Y.Golovinning noqonuniy boylik orttirish sohasidagi asoslangan huquqiy tadqiqotlariga ko'ra, huquqshunoslar va siyosatchilar orasida ko'p yillardan beri noqonuniy boylik orttirish uchun jinoiy javobgarlik belgilashda qarama-qarshi pozitsiyalar vujudga kelayotgan bo'lib, bir tomondan ushbu qilmishni jinoiy qilmish sifatida kriminalizatsiya qilish – jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligidagi prinsiplarga zid bo'lmoqda, sababi, shaxsning qasddan noqonuniy boylik orttirishi masalasida shaxsning qilmishida qasdnining mavjudligini isbotlashda qiyinchiliklar mavjudligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, ushbu qilmishni tergov qilishda aybsizlik prezumpsiyasi, mulk huquqining daxlsizligi kabi konstitutsiyaviy huquqlarning muayyan darajada cheklanishida namoyon bo'lmoqda. Endi ushbu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasida ham davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son farmoniga muvofiq, davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va davlat dasturi darajasida belgilab qo'yilgan [10]. Shundan kelib chiqqan holda, davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish mexanizmini qonun bilan mustahkamlanishi, jamiyatda davlat xizmatchilarining deklaratsiyada ko'rsatilgan barcha mol-mulkleri va daromadlaridan sezilarli darajada oshib ketishi o'z-o'zidan jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda, O'zbekiston Respublikasida mansabdor shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishi va noqonuniy daromadlarini legallashtirish ko'rsatkichlari yildan-yilga o'sib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yilgi jinoyatchilik holati yuzasidan axborotiga muvofiq, 2024-yilda 3821 ta jinoyat ishi doirasida 4906 ta mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lsa, 2023-yilda 3412 ta jinoyat ishi doirasida 3575 ta mansabdor shaxslar javobgarlik tortilgan edi. Buning oqibatida 2024-yilda davlat byudjetiga 3 trillion 608 mlrd. so'm zarar yetkazilgan bo'lib, shundan 2 trln. 343 mlrd. so'm undirilgan. Demak, 2024-yildagi mansabdor shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilishi 2023-yilga nisbatan 27 foizga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Noqonuniy boylik orttirish qilmishini Konvensiyaning 20-moddasida belgilangan tartibda o'zining milliy qonunchiligiga jinoyat sifatida kiritgan xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, **Xitoy Xalq Respublikasi (bundan buyon matnda XXR deb yuritiladi) beshinchi milliy kongressida 1979-yil 1-iyulda qabul qilingan va 1997-yil 14-martda o'zgartirish kiritilgan XXR Jinoyat qonunining 395-moddasida mansabdor shaxsning noqonuniy boyishi – jinoyat sifatida belgilab qo'yilgan.** Xususan, XXR Jinoyat qonunining 395-moddasiga ko'ra, har qaysi davlat amaldorining mulki yoki pul xarajatlari uning qonuniy daromadidan oshib ketgan bo'lsa, farq katta bo'lsa undan

tushuntirish talab qilinadi hamda agarda mansabdor shaxs buni isbotlashda muvaffaqiyatsizlikka uchrasa noqonuniy daromad deb topilib, besh yildan ko'p bo'lmagan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi. Agarda qonuniy daromad bilan o'rtasidagi farqi juda katta bo'lsa, mansabdor shaxsga 5 yildan ortiq ammo 10 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi hamda farqli mol-mulk davlat foydasiga musodara qilinadi. Mansabdor shaxs agarda xorijiy moliya institutlariga depozit pul mablag'larini joylagan bo'lsa, bu haqida vakolatli davlat organiga deklaratsiyalash orqali xabar berishi shart, agar xabar bermasa, ikki yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki zarar uncha katta bo'lmasa mansabdor shaxsga ma'muriy jazo tayinlanishi belgilangan [11]. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasiga qo'shni bo'lgan MDH davlatlaridan biri Qirg'iziston Respublikasi milliy qonunchiligida mansabdor shaxsning noqonuniy boylik orttirishi – ham jinoyat sifatida belgilanganligini huquqiy tahlil qiladigan bo'lsak, 2021-yil 28-oktabrda qabul qilingan **Qirg'iziston Respublikasi** Jinoyat kodeksining 340-moddasiga ko'ra, mansabdor shaxs tomonidan egaligida boshqa shaxs hisobidan mol-mulkka ega bo'lishi oxirgi ikki yildagi qonuniy manbalar asosida tasdiqlangan uning daromadidan ko'p bo'lishi - jinoiy yo'l bilan orttirilgan hamda noqonuniy deb topilib, 3000 dan 5000 gacha hisob-kitob ko'rsatkichlari bilan jarimaga tortilishi yoki **2 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etilishi**, ikki yilgacha muayyan lavozimlarda ishlash huquqidan mahrum etilishi belgilangan. O'sha harakatlar mas'ul mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, mol-mulkining qiymati mansabdor shaxsning so'nggi besh yildagi qonuniy manbalarda tasdiqlangan rasmiy daromadidan ortiq bo'lsa, - uch yilgacha muayyan lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilib, 10000 dan 20000 oylik hisob-kitob ko'rsatkichi miqdorida jarima yoki mol-mulki musodara qilinib, **besh yildan sakkiz yilgacha** ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan [12]. Keyingi navbatda, Yevropa davlatlaridan Germaniya misolida noqonuniy boylik orttirish qilmishining jinoyat sifatida belgilanganligi va javobgarlik masalalarini tahlil qiladigan bo'lsak, Germaniya Federativ Respublikasi "Transparency International" xalqaro indeksida 75 ball bilan 180 davlat orasida 15-o'rinni egallamoqda.

Xususan, "Transparency International" xalqaro tashkilotining statistik ma'lumotlariga ko'ra, Germaniyada davlat sektorida pora berish, korrupsiyaviy jinoyatlar 2024-yilning so'nggi 12 oyi ichida 3 % tashkil qilishi tahlil qilingan . Germaniya qonunchiligiga ko'ra, mansabdor shaxslarning noqonuniy boylik orttirish masalasidagi ilmiy-huquqiy tadqiqotlardan biri bo'lgan, Portsmouth universiteti professorlari, Cornelia Kortl, Imad Chbiblarning ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, 2016-yilda xalqaro hamjamiyatga oshkor etilgan Panama hujjatlari (Panama papers-2016) Germaniya hududida faoliyat yurituvchi va Germaniyadagi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning turli yo'nalishlariga 50 million yevro investitsiya kiritganliklari, mobil qurilmalardagi

moliyaviy tekshiruvlarsiz pul mablag‘lari o‘tkazmalarining yopiq shaklda ekanligi ortidan 150 dan ortiq ofshor hisob raqamlar, qalbaki shell kompaniyalar mavjudligi aniqlangan va ularning ta‘sischilari Germaniyaning turli xil mansabdor shaxslari ekanligi ma‘lum qilingan . Shu munosabat bilan, Germaniya parlamentida 2017-yilda yangi tahrirdagi “The Law on Reforming Criminal Asset Recovery” qabul qilinib, ushbu qonunga ko‘ra BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining talablari asosida, mansabdor shaxslarning daromadlari deklaratsiya qilinishi va sudning asoslantirilgan qarori asosida korrupsion jinoyat sodir etganlikda aybli deb topilgan shaxslarning barcha mol-mulkari, daromadlari davlat foydasiga musodara qilinishi belgilangan [13]. Shuningdek, Germaniya Federativ Respublikasining Jinoyat kodeksi 76a-moddasiga muvofiq, sud agarda jinoiy qilmish sodir etgan aniq bir shaxsni javobgarlikka tortish yoki sud qilishni imkonsiz deb topsa, ana shu ish yuzasidan muayyan jabirlanuvchining tergov qilish bo‘yicha arizasi mavjudligi sharti bilan muayyan mol-mulkarni mustaqil ravishda musodara qilish bo‘yicha order berishga haqli deb topiladi [14]. Demak, Germaniyada muayyan jinoiy qilmish oqibatida davlat iqtisodiyotiga zarar yetish xavfi aniqlanganda, shaxsning orttirgan mol-mulkari har qaysi turdagi jinoiy qilmish natijasida orttirilgan deb topilsa, sudda mustaqil tarzda mol-mulkarni davlat hisobiga musodara qilishga order berish vakolati mavjud bo‘ladi.

Xulosa. Yuqoridagi xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qilar ekanmiz, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashishda mansabdor shaxsning noqonuniy boylik orttirishi qilmishini milliy qonunchilikda jinoyat sifatida baholab, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga alohida huquqiy norma sifatida kiritish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan “O‘zbekiston-2030 strategiyasi”ning 89-maqsadida “Transparency International” global indeksida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurash sohasida 50 pog‘onaga ko‘tarilish lozim ekanligini davlat siyosati darajasida belgilab qo‘yilgan [15]. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida mansabdor shaxslarning korrupsion jinoyatlarni sodir etishlarini oldini olish uchun hamda noqonuniy boylik orttirish uchun jinoiy javobgarlikka asos bo‘luvchi huquqiy mexanizm sifatida mansabdor shaxslarning mol-mulkari va daromadlarining deklaratsiyalash reestrini Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tomonidan qonunchilikka asosan yuritish ham davlat strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda [16]. Hozirgi kunda Transparency International xalqaro indeksida O‘zbekiston Respublikasi 33 bal bilan 180 davlatlardan orasida 121-o‘rinni egallamoqda [17]. Ushbu ko‘rsatkichni yanada yuqoriroq pog‘onaga olib chiqishda mansabdor shaxslarning qilmishi oqibatida davlat iqtisodiyotiga yetkazilgan zararni qoplashda jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsni mol-mulki va daromadlarini davlat hisobiga musodara qilish mexanizmini normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilash muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UN anti-corruption conference celebrates 20th anniversary of UN Convention against Corruption, Atlanta, USA “United Nations Convention against corruption”
<https://www.unodc.org/unodc/en/frontpage/2023/December/the-fight-against-corruption-is-everyones-fight--un-anti-corruption-conference-celebrates-20th-anniversary-of-un-convention-against-corruption.html>
2. 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son O‘zbekiston Respublikasi Qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasining “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York 2003-yil 31-oktabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi O‘RQ-158-son qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2008-yil 24-iyunda qabul qilingan, Senat tomonidan 2008-yil 27-iyunda ma’qullangan.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // A.Sh.Bekmuradov. Toshkent, “Akademiya” – 2022, 224-bet.
5. Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции, принята резолюцией 58/4 Генеральной Ассамблеи от 31 октября 2003 года
https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/corruption.shtml
6. Венская Конвенция, “О праве международных договоров” от 23 мая 1969 года
<https://lex.uz/docs/2646414>
7. United Nations Charter, San Francisco 1945, p-3.
8. Щедрин. Н.В. Проблемы и перспективы криминализации незаконного обогащения публичных должностных лиц// Имущественные отношения в Российской Федерации. 2018. №12. С. 62-75
9. Незаконное обогащение новый взгляд на криминализацию деяния // Головин А. Ю, Бугаевская Н.В, Всероссийский криминологический журнал. 2020. Т. 14, № 4. С. 593–600
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni
11. Criminal law of People’s Republic of China 1979.
https://sherloc.unodc.org/cld/uploads/res/document/chn/1987/criminal-law-of-the-peoples-republic-of-china_html/China_Criminal_Code_Full_text.pdf
12. Уголовный кодекс Кыргызской Республики от 28 октября 2021 года № 127
<https://cbd.minjust.gov.kg/112305/edition/1127825/ru>
13. Cornelia Körth, Imad Chbib. Illicit enrichment in Germany: An evaluation of the reformed asset recovery regime's ability to confiscate proceeds of crime. International Review of

Law and Economics. Journal, Volume-80, December 2024, 106230
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0144818824000504>

14. German Criminal Code (Strafgesetzbuch – StGB) as last amended by Article 2 of the Act of 22 November 2021 (Federal Law Gazette I, p. 4906) https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni

16. B.I.Ismoilov, II.Nasriyev. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish masalalari // O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi Sudyalar oliy maktabi. Toshkent – 2021.

17. “Transparency International” xalqaro indeksidagi korrupsiyani qabul qilish indeksida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash ko‘rsatkichlari
<https://www.transparency.org/en/countries/uzbekistan>